

TERRORIZMGA QARSHI KURASHDA INSON HUQUQLARINI TA'MINLASH.

Dostonov Eldiyor Elmurod o'g'li

*O'zbekiston Respublikasi Toshkent Davlat Transport Universiteti Iqtisodiyot
fakuteti Yurisprudensiya yo'nalishi 2-bosqich bakalavr talabasi:*

Annotatsiya: *Ushbu ishda terrorizm va inson huquqlari o'rtasidagi murakkab bog'liqlik, O'zbekistonning bu boradagi siyosati, shuningdek xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlikdagi sa'y-harakatlari tahlil qilinadi. Ishda BMTning Global aksilterror strategiyasi, 76/169-sonli rezolyusiya hamda maxsus ma'ruzachining O'zbekistonga tashrifi doirasida amalga oshirilgan "Mehr" operatsiyalari asosida mamlakatning xalqaro tajribasi o'rganiladi. Ish natijalariga ko'ra, O'zbekistonning terrorizmga qarshi kurashdagi inson huquqlariga asoslangan yondashuvi mintaqaviy va xalqaro barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekani aniqlangan.*

Kalit so'zlar: *terrorizm, inson huquqlari, O'zbekiston, BMT, Global aksilterror strategiyasi, reintegratsiya, "Mehr" operatsiyasi.*

Аннотация: *В данной работе анализируется сложная взаимосвязь между терроризмом и правами человека, политика Узбекистана в этой области, а также усилия по сотрудничеству с международным сообществом. Исследование основывается на Глобальной антитеррористической стратегии ООН, резолюции 76/169 и визите Специального докладчика в Узбекистан, а также на реализации гуманитарной операции «Мехр». Результаты показывают, что подход Узбекистана к борьбе с терроризмом с соблюдением прав человека играет важную роль в обеспечении региональной и международной стабильности.*

Ключевые слова: *терроризм, права человека, Узбекистан, ООН, Глобальная антитеррористическая стратегия, реинтеграция, операция «Мехр».*

Annotation: *This study examines the complex relationship between terrorism and human rights, Uzbekistan's policy in this field, and its efforts in cooperation with the international community. The research is based on the UN Global Counter-Terrorism Strategy, Resolution 76/169, the visit of the Special Rapporteur to Uzbekistan, and the implementation of the "Mehr" humanitarian operation. The results indicate that Uzbekistan's human rights-based approach to countering terrorism is of significant importance for ensuring regional and international stability.*

Keywords: *terrorism, human rights, Uzbekistan, UN, Global Counter-Terrorism Strategy, reintegration, "Mehr" operation.*

Kirish

Hozirgi globallashuv davrida xalqaro xavfsizlik va inson huquqlari masalalari o‘zaro chambarchas bog‘liq holda namoyon bo‘lmoqda. Xususan, terrorizm va zo‘ravonlik ekstremizmi zamonaviy dunyo uchun eng jiddiy tahdidlardan biri sifatida namoyon bo‘lib, nafaqat davlatlarning hududiy yaxlitligi va siyosiy barqarorligiga, balki insonning asosiy huquq va erkinliklariga ham bevosita xavf tug‘dirmoqda. Shu bois, terrorizmga qarshi kurash jarayonida inson huquqlarini ta‘minlash masalasi xalqaro hamjamiyat e‘tibor markazida turibdi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2021 yil 16 dekabrda qabul qilingan 76/169-sonli “Terrorizm va inson huquqlari” rezolyusiyasi mazkur sohadagi dolzarb global muammolarga e‘tibor qaratgan hujjat sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Unda terrorizmning barcha shakl va ko‘rinishlari, ularning motivatsiyasi yoki moliyaviy manbalaridan qat’i nazar, xalqaro huquqqa zid ekani qat’iy belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, rezolyusiyada terrorizm va ekstremizm inson huquqlari, erkinliklari hamda davlatlarning barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi salbiy omil sifatida baholangan.¹

O‘zbekiston Respublikasi ushbu yo‘nalishda BMT va uning maxsus institutlari bilan faol hamkorlik qilib kelmoqda. BMTning terrorizmga qarshi kurashda inson huquqlarini rag‘batlantirish bo‘yicha maxsus ma‘ruzachisi Fionnuala Ní Aoláin ning 2021 yilda O‘zbekistonga tashrifi va mamlakatda amalga oshirilgan “Mehr” insonparvarlik operatsiyalari bu borada yuksak e‘tirof etilgan xalqaro amaliyot sifatida namoyon bo‘ldi. Mazkur tashabbuslar terrorizmning ildiziga qarshi kurashish bilan bir qatorda, mojaroli hududlardan qaytgan fuqarolarning rehabilitatsiyasi va jamiyatga reintegratsiyasini ta‘minlash orqali inson huquqlarini amalda ro‘yobga chiqarishga xizmat qilmoqda.²

Shu nuqtai nazardan, ushbu ishda terrorizm va inson huquqlari o‘rtasidagi murakkab o‘zaro bog‘liqlik, O‘zbekistonning bu boradagi siyosati hamda xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlikdagi sa’y-harakatlari tahlil qilinadi.

Asosiy qism

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida so‘zlagan nutqida ta’kidlaganidek, bugungi kunda Markaziy Osiyo mintaqasida chuqur va ijobiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Mintaqa davlatlari o‘rtasida o‘zaro ishonch, yaxshi qo‘shnichilik, do‘stlik va hurmatga asoslangan yangi siyosiy muhit shakllanayotgani qayd etildi. Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ilgari surilgan tashabbus natijasida muntazam o‘tkazilayotgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlari mintaqaviy birdamlikni mustahkamlash yo‘lida muhim omil sifatida e‘tirof etildi.

¹ United Nations. Global Counter-Terrorism Strategy, 2006

² BMT Bosh Assambleyasi. 76/169-sonli rezolyusiya “Terrorizm va inson huquqlari”, 16 December 2021

Prezidentimiz o‘z nutqida, mintaqada xavfsizlikni ta‘minlash va tinchlikni mustahkamlash yo‘lida hamkorlik samarali yo‘lga qo‘yilganini ta‘kidladi. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Global aksilterror strategiyasining muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgani qayd etilib, ushbu yo‘nalishda xalqaro hamkorlikni yanada kuchaytirish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi.

Davlat rahbari, shuningdek, mazkur strategiya doirasida ishlab chiqilgan Mintaqaviy qo‘shma rejaning o‘tgan 10 yillik natijalari va kelgusi istiqbollariga bag‘ishlangan xalqaro konferensiyaning tashkil etish tashabbusini ilgari surdi. Ushbu tashabbus mintaqada terrorizmga qarshi kurash sohasidagi sa‘y-harakatlarni muvofiqlashtirish, xavfsizlik tizimini mustahkamlash va barqaror rivojlanishni ta‘minlash yo‘lidagi muhim qadam sifatida baholanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi asosida tashkil etilayotgan Toshkent xalqaro anjumani mintaqaviy hamkorlik va xavfsizlikni mustahkamlash yo‘lida muhim qadam bo‘lib, ushbu tashabbusning amaliy ifodasidir. Mazkur konferensiyaning BMT shafeligida va xalqaro hamda mintaqaviy tashkilotlar ishtirokida o‘tkazilayotgani O‘zbekistonning ochiq, konstruktiv tashqi siyosati xalqaro hamjamiyat tomonidan keng miqyosda qo‘llab-quvvatlanayotganining yaqqol dalilidir.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo mintaqasi siyosiy, iqtisodiy, ekologik hamda madaniy-gumanitar sohalarni qamrab oluvchi jiddiy geosiyosiy o‘zgarishlar bosqichini boshdan kechirmoqda. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019 yilda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvida qayd etganidek, “Markaziy Osiyo geostrategik jihatdan ming yillar davomida jahon miqyosidagi jarayonlarning markazida bo‘lib kelgan bo‘lib, u o‘zining boy madaniy-tarixiy merosi orqali Yevropa, Yaqin Sharq, Janubiy va Sharqiy Osiyoni bog‘lovchi noyob ko‘prik vazifasini bajargan”.

Mazkur yondashuv mintaqaning siyosiy-iqtisodiy hamda madaniy-gumanitar rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyili sifatida “Markaziy Osiyoni xavfsizlik, izchillik va barqaror rivojlanish mintaqasiga aylantirish” konsepsiyasi ilgari surilgan bo‘lib, u mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash, o‘zaro ishonchni chuqurlashtirish hamda tinchlik va barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qilmoqda.

Shuni ta‘kidlash lozimki, pandemiya oqibatlariga qaramay, mintaqada davlatlari o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari izchil rivojlanib bormoqda. Bu esa, Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida shakllangan yangi ishonch muhitining barqarorligini va o‘zaro manfaatli siyosiy hamkorlikning yanada chuqurlashib borayotganini tasdiqlaydi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2006 yil 8 sentyabrda qabul qilingan Global aksilterror strategiyasi to‘rtta asosiy yo‘nalishni o‘z ichiga oladi. Ulardan biri inson huquqlarini hurmat qilish va qonun ustuvorligini ta‘minlash masalasiga bag‘ishlangan bo‘lib, mazkur bo‘lim “Inson huquqlarining umumjahon miqyosida hurmat qilinishi va

qonun ustuvorligini terrorizmga qarshi kurashning asosiy tayanchi sifatida ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar" deb nomlanadi.

Strategiyada alohida ta'kidlanishicha, terrorizmga qarshi kurashish va inson huquqlarini himoya qilish bir-birini inkor etuvchi emas, balki o'zaro uyg'unlikda amalga oshiriladigan jarayonlardir. Bunda har ikkala yo'nalish bir-birini to'ldiradi hamda terrorizm qurbonlari huquqlarini himoya qilish, jabrlanganlarga yordam ko'rsatish va ularning huquqiy manfaatlarini ta'minlash uchun zarur sharoit yaratadi.

Mazkur yondashuv O'zbekiston Respublikasining 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi tamoyillariga hamohangdir. Chunki strategiyaning oltinchi ustuvor yo'nalishi — "Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish" deb nomlanib, O'zbekistonning xalqaro xavfsizlik, tinchlik va inson huquqlarini ta'minlash borasidagi faol tashabbuslarini o'zida mujassam etadi. Ushbu tamoyil milliy manfaatlar bilan bir qatorda, umuminsoniy qadriyatlar — tinchlik, adolat va insonparvarlikni ham ilgari surishga qaratilgandir.

O'zbekiston Respublikasi 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasining oltinchi ustuvor yo'nalishi doirasidagi "Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishningsamarali mexanizmlarini shakllantirish" nomli 82-maqсад alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur yo'nalish mamlakatda tinchlik, barqarorlik va xavfsizlikni mustahkamlash, shuningdek, xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish imkonini beradi.

Hozirgi kunda Taraqqiyot strategiyasi doirasida ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish borasida qator tizimli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, birinchidan, terrorizm va ekstremizmni keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish, bu yo'nalishda profilaktik (preventiv) mexanizmlarni takomillashtirish, ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaxshilash va yot g'oyalarning kirib kelishining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ikkinchidan, yoshlar ongida ekstremistik va terroristik mafkuralarga nisbatan mustahkam mafkuraviy immunitetni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada ta'lim-tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy hamda axborot siyosati vositalaridan samarali foydalanish muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Uchinchidan, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashishning xalqaro-huquqiy asoslarini takomillashtirish, xorijiy davlatlar, mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy bazasini kengaytirish bo'yicha faol sa'y-harakatlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, diplomatik vakolatxonalar, konsullik muassasalari, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi va boshqa idoralarning kadrlar salohiyatini oshirish ham ushbu yo'nalishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

To'rtinchidan, O'zbekiston Respublikasi ekstremizm va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish, bu borada axborot almashish va tajriba o'rtoqlashish mexanizmlarini rivojlantirish, xalqaro va mintaqaviy tashabbuslarda faol ishtirok etish orqali o'zining xalqaro nufuzini mustahkamlamoqda.

Beshinchidan, mamlakatimiz BMTning Global aksilterror strategiyasini Markaziy Osiyo mintaqasida amalga oshirish bo'yicha hamkorlikdagi harakatlar rejasi doirasida faol ishtirok etmoqda. Bu jarayon O'zbekistonning mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashdagi tashabbuskorlik rolini yanada kuchaytiradi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, ushbu mamlakatni mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik va ekstremizmga qarshi kurash jarayonlariga jalb etish tashabbuslarini ilgari surmoqda. Ushbu siyosat O'zbekistonning nafaqat milliy, balki global xavfsizlikni ta'minlash yo'lidagi faol pozitsiyasini ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasi tashabbusi bilan o'tkazilayotgan xalqaro konferensiyalarda inson huquqlarini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Ta'bir joiz bo'lsa, bu yondashuv Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Inson qadri uchun" tamoyili¹ bilan uzviy bog'liqdir. Mazkur tamoyil Yangi O'zbekiston taraqqiyotining mafkuraviy asosini tashkil etib, inson huquqlarining ustuvorligi va qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatini ifodalaydi.

Shu nuqtai nazardan, xalqaro anjuman doirasida "Inson huquqlarining umumjahon miqyosida hurmat qilinishi va qonun ustuvorligi ta'minlanishi – terrorizmga qarshi kurashning asosiy tayanchi" mavzusidagi sessiyaning tashkil etilishi ham mamlakatimizning inson huquqlariga asoslangan xavfsizlik siyosatini ilgari surayotganidan dalolat beradi.

Mamlakatimiz Birlashgan Millatlar Tashkilotining Global aksilterror strategiyasini faol qo'llab-quvvatlab kelmoqda hamda terrorizm va diniy ekstremizmga qarshi kurashishga oid 14 ta xalqaro konvensiya va protokollarni ratifikatsiya qilgan. Ushbu xalqaro hujjatlar milliy qonunchilikka muvofiq holda amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasida ushbu sohada mustahkam milliy-huquqiy baza yaratilgan. Xususan, "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun (2018-yil 30-iyul),³ "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonun (2000-yil 15-dekabr)⁴ hamda "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun (2004-yil 26-avgust)⁵ mamlakatimizda ushbu sohadagi huquqiy asosni belgilab bermoqda.

Mazkur qonunlar ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning asosiy tamoyillari, subyektlari, ularning vakolatlari hamda xalqaro hamkorlik mexanizmlarini aniqlab beradi. Natijada, O'zbekiston ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish sohasida nafaqat milliy darajada, balki xalqaro miqyosda ham faol subyekt sifatida tan olinmoqda.

³ Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida, 2003

⁴ Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida, 2004

⁵ Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish... 2005

2021-yil 16-dekabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 76-sessiyasida qabul qilingan “Terrorizm va inson huquqlari” nomli 76/169-sonli rezolyusiya xalqaro huquq sohasida muhim hujjatlardan biri hisoblanadi. Mazkur rezolyusiyada terrorizmning barcha shakl va ko‘rinishlari, ular kim tomonidan, qanday sabablarga yoki moliyaviy-siyosiy omillarga asoslanib sodir etilishidan qat’i nazar, xalqaro huquqqa zid va insoniyatga qarshi qaratilgan xatti-harakatlar sifatida qat’iy qoralanadi.

Rezolyusiyada alohida ta’kidlanishicha, terrorizm va ekstremizm inson huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarining to‘liq ro‘yobga chiqishiga jiddiy to‘sqinlik qiladi. Natijada insonlarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlarini amalga oshirish jarayoni izdan chiqadi, bu esa davlatlarning hududiy yaxlitligi, suvereniteti va barqarorligiga tahdid soladi⁶.

Shuningdek, hujjatda terrorizmning kuchayishi xalqaro tinchlik va xavfsizlikka, shuningdek, farovon jamiyatlar barpo etilishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xavf tug‘dirishi qayd etilgan. Shu bois, rezolyusiya BMT a’zolari zimmasiga nafaqat terrorizmga qarshi chora ko‘rish, balki bu jarayonda inson huquqlari va qonun ustuvorligini ta’minlash majburiyatini ham yuklaydi.⁶

Mazkur hujjatning yana bir muhim jihati shundan iboratki, unda BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashining “Terrorizmga qarshi kurashda inson huquqlarini rag‘batlantirish va himoya qilish masalalari bo‘yicha maxsus ma’ruzachisi” faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga chaqiriq bayon etilgan. Barcha davlatlardan mazkur maxsus ma’ruzachining vakolatlarini bajarishda har tomonlama yordam ko‘rsatish so‘raladi.

Bu esa terrorizmga qarshi kurash jarayonida xalqaro nazorat va hisobotlilik tamoyillarini kuchaytirish, davlatlar o‘rtasida inson huquqlariga asoslangan hamkorlikni mustahkamlash maqsadida qabul qilingan mexanizm sifatida e’tirof etiladi.

Shu o‘rinda BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashining “Terrorizmga qarshi kurashda inson huquqlarini rag‘batlantirish va himoya qilish masalalari bo‘yicha maxsus ma’ruzachisi” — Fionnuala Ní Aoláinning O‘zbekistonga 2021-yil 28-noyabrdan 7-dekabrga qadar amalga oshirgan rasmiy tashrifi alohida e’tiborga loyiqdir. Mazkur tashrif mamlakatimizning inson huquqlariga asoslangan yondashuvni mustahkamlash hamda BMT bilan tizimli hamkorlikni chuqurlashtirish yo‘lidagi muhim qadamlardan biri bo‘ldi.

Tashrif doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev BMT Maxsus ma’ruzachisini qabul qildi. Suhbat davomida tomonlar BMT organlari va huquqni himoya qilish institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish, shuningdek, terrorizmga qarshi kurashish jarayonida inson huquqlarini ta’minlashga oid xalqaro anjumanlarni o‘tkazish masalalarini muhokama qildilar.

Fionnuala Ní Aoláin o‘zining matbuot anjumani va jamoatchilik ishtirokidagi brifinglarida O‘zbekiston tomonidan amalga oshirilgan “Mehr” humanitar

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati, www.pressservice.uz

operatsiyasini yuksak baholadi. U bu tashabbus orqali Suriya, Iroq va Afg'onistondagi mojaroli hududlardan olib chiqilgan ayollar va bolalarning reabilitatsiya va reintegratsiya jarayonlari xalqaro andozalarga to'la mos tarzda tashkil etilganini ta'kidladi.⁷

Shuningdek, Maxsus ma'ruzachi Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanidagi reabilitatsiya markazi faoliyati bilan tanishib, unda ayollar va bolalarga yaratilgan ijtimoiy, psixologik va huquqiy yordam sharoitlarini ijobiy baholadi. U o'z nutqida:

“Oila birligi va jamiyatning qo'llab-quvvatlashiga asoslangan o'zbek modeli – repatriatsiya jarayonida insonparvarlik, bolaning manfaatlarini himoya qilish hamda ayollarni jamiyatga qayta integratsiya qilish borasida eng yaxshi xalqaro tajribalardan biridir,” — deb ta'kidladi.

Mazkur tashrif O'zbekistonning BMT bilan inson huquqlari sohasidagi ochiqligi, hisobdorligi va hamkorlikka tayyorligini amalda isbotlab berdi. Shu bilan birga, mamlakatimizda terrorizmga qarshi kurashish siyosatining inson huquqlari bilan uyg'unlashtirilgan modeli shakllanayotganini ko'rsatdi.

Ma'lumki, 2021-yil 5-iyul kuni BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 47-sessiyasi doirasida “Suriya va Iroqdan olib kelingan ayollar hamda bolalarning reabilitatsiyasi va reintegratsiyasi” mavzusida onlayn-seminar o'tkazildi. Tadbirda O'zbekiston vakillari ham faol ishtirok etdilar. Unda Suriyaning shimoli-sharqidagi “Al-Hol” va “Roj” lagerlarida 70 mingga yaqin inson, asosan ayollar va bolalar, 57 mamlakat fuqarolari og'ir ijtimoiy-psixologik sharoitda yashayotgani ta'kidlandi.

Mazkur dolzarb muammoga insonparvarlik yondashuvini qo'llagan O'zbekiston Respublikasi 2019-yildan boshlab Suriya, Iroq va Afg'oniston hududlarida qolib ketgan o'z fuqarolarini qaytarish bo'yicha “Mehr” nomli beshta maxsus operatsiyani amalga oshirdi. Ushbu operatsiyalar natijasida jami 531 nafar ayol va bola mamlakatga olib kelinib, ularning reabilitatsiya va ijtimoiy reintegratsiya jarayonlari davlat nazoratida tashkil etildi.⁸

Jahon hamjamiyati O'zbekistonning mazkur tashabbusini insonparvarlik diplomatiyasining namunasi sifatida e'tirof etdi. BMT, Yevropa Ittifoqi, YuNISEF hamda Inson huquqlari bo'yicha oliy komissar boshqarmasi vakillari O'zbekistonning fuqarolarini mojaro zonalaridan xavfsiz qaytarish, ularni jamiyat hayotiga qayta jalb etish va ruhiy-ijtimoiy qo'llab-quvvatlash yo'nalishidagi siyosatini yuqori baholadilar.

Xalqaro ekspertlar ta'kidlaganidek, O'zbekistonning bu boradagi yondashuvi bolalarni jabrlanuvchilar sifatida tan olish, gender masalalarini inobatga olgan reintegratsiya dasturlarini ishlab chiqish hamda ayollar va bolalarning ijtimoiy manfaatlarini himoya qilish tamoyillariga asoslangan. Bu esa inson huquqlarini ta'minlash sohasida zamonaviy xalqaro standartlarga mos amaliy mexanizmlarning joriy etilganini ko'rsatadi.

⁷ OHCHR. End of visit statement... Uzbekistan, 7 December 2021

⁸ NICEF Uzbekistan. “Mehr” operatsiyasi, 2021

Shuningdek, “Mehr” operatsiyalari doirasida amalga oshirilgan kompleks chora-tadbirlar — psixologik yordam, kasbiy tayyorgarlik, huquqiy maslahat va ijtimoiy moslashuv jarayonlarini o‘z ichiga olib, mamlakatda demokratiya, qonun ustuvorligi va inson qadrini yuksaltirish siyosatini yanada mustahkamladi. Bu tajriba O‘zbekistonning BMT Global aksilterror strategiyasidagi inson huquqlarini ta‘minlashga doir majburiyatlariga amaliy hissa qo‘shganini ko‘rsatadi.

Vataniga qaytarilgan ayollar, bolalar va oilalarning jamiyat hayotiga qayta integratsiyalashuvi O‘zbekistonning insonparvarlik siyosatining muhim tarkibiy qismi sanaladi. Bu jarayon, bir tomondan, fuqarolarning ijtimoiy izolyatsiya va chetlanish holatlariga barham berish, ikkinchi tomondan esa, kambag‘allikni kamaytirish orqali mamlakatda ijtimoiy barqarorlik va tinchlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Reintegratsiya jarayonlarida psixologik yordam, kasbiy tayyorgarlik va ijtimoiy moslashuv dasturlari muhim o‘rin tutadi. Bu chora-tadbirlar jamiyatda bag‘rikenglik, birdamlik va ijobiy ijtimoiy muhitni shakllantirishga yordam beradi.

BMTning terrorizm masalalari bo‘yicha maxsus ma‘ruzachisi Fionnuala Ní Aoláin o‘z hisobotlarida O‘zbekistonning terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashda ilgari surayotgan inson huquqlariga asoslangan yondashuvlarini ijobiy baholagan. Mutaxassis fikricha, O‘zbekiston tajribasi xavfsizlik va inson huquqlari o‘rtasida muvozanatni ta‘minlashga qaratilgan yangi, kompleks model sifatida e‘tirof etilishi mumkin.⁹

Shu bilan birga, O‘zbekiston xalqaro maydonda terrorizmga qarshi global kurashning faol ishtirokchisiga aylangan. Mamlakat BMT Aksilterror qo‘mitasi, MDH Aksilterror markazi, shuningdek, Markaziy Osiyo uchun BMT Global aksilterror strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha qo‘shma dastur doirasida muntazam hamkorlik olib bormoqda. Bu faoliyat O‘zbekistonning xalqaro xavfsizlikni ta‘minlash va mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlashdagi siyosiy irodasini yaqqol namoyon etadi.

Xulosa

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Toshkentda o‘tkaziladigan xalqaro konferensiya BMT Global aksilterror strategiyasini Markaziy Osiyo miqyosida amalga oshirishning muvaffaqiyatli modeli sifatida O‘zbekiston tajribasini namoyish etadi. Anjumanda terrorizmga qarshi kurash sohasidagi xalqaro va mintaqaviy hamkorlikni kengaytirish, davlatlar salohiyatini oshirish hamda inson huquqlari va qonun ustuvorligini ta‘minlash masalalari keng muhokama etilishi kutilmoqda. Bu esa O‘zbekistonning tinchlik, xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lidagi tashqi siyosatining izchil va mas‘uliyatli yo‘nalishini yana bir bor tasdiqlaydi.

⁹ Ní Aoláin F. Press briefing, Tashkent, Uzbekistan, 6 December 2021

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. O'zbekiston Respublikasida inson qadri va huquqlarini ta'minlash siyosati. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati, 2021.
2. Qodirov A. Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashda xalqaro huquqiy me'yorlar. – Toshkent: Huquq, 2022.
3. Karimov D. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoya va reintegratsiya tizimi. – Toshkent: Jamiyat va huquq, 2021.
4. OHCHR. End of visit statement by the Special Rapporteur on the promotion and protection of human rights and fundamental freedoms while countering terrorism – Uzbekistan, 7 December 2021.
5. United Nations Human Rights Council, Panel discussion on the repatriation, rehabilitation and reintegration of women and children from Syria and Iraq, 5 July 2021.
6. Ní Aoláin F. Press briefing, Tashkent, Uzbekistan, 6 December 2021.
7. United Nations. Global Counter-Terrorism Strategy, 2006.
8. UNICEF. Uzbekistan's humanitarian operation "Mehr": successful repatriation and reintegration efforts, 2021.
9. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2023.
9. O'zbekiston Respublikasi "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun, 2003-yil.
10. O'zbekiston Respublikasi "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonun, 2004-yil.
11. O'zbekiston Respublikasi "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonun, 2005-yil.
12. BMT Bosh Assambleyasi. 76/169-sonli rezolyusiya "Terrorizm va inson huquqlari", 16 December 2021.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati: www.pressservice.uz
15. BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashi: www.ohchr.org
16. UNICEF Uzbekistan: www.unicef.org/uzbekistan